
21 OKTYABR – O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

21 oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Toshloq tumanida “Qadring baland bo‘lsin, Ona tilim!” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev so‘zga chiqib, Ona tilimiz – o‘zbek tiliga davlatimiz tomonidan alohida e‘tibor qaratilayotganligining ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi. “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi har qanday sharoitda ham til, umuman, ma‘rifat va ma‘naviyat masalasi davlatimizning doimiy e‘tibor markazida ekanini yana bir bor isbotini topganligini aytib o‘tdi.

Kecha davomida Navoiy siymosi aks ettirilib, faol yoshlar tomonidan tilni e‘zozlovchi shariyat durdonalarini eshittirilishi hamda san‘at vakillarining chiqishlari tadbirga yanada ko‘tarinkilik bag‘ishladi.

2022-10-21 15:40:27